



TARJIMA: ERKINLIK VA MAS'ULIYAT

A. G. Qosimov¹

orcid:0009-0008-3967-704X

abdulaziz.qosimov@gmail.com

A.I. Avlaqulov²

orcid: 0009-0000-1631-0378

avazjonavlaqulov@utas.uz

¹(PhD) Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Nemis jamg'armasi hamkorloik fondining davlat idoralari bo'yicha eksperti, Toshkent, 100015, O'zbekiston respublikasi.

²Chet tillar 1 kafedrasida katta o'qituvchisi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko'chasi 1, 100149, O'zbekiston respublikasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14879017>

Annotasiya: Badiiy tarjima tarjimonga ikki tomonlama mas'uliyatni yuklaydi. Bir tomonda muallifning pozitsiyasida turib tarjima qilish, boshqa tomonda esa o'quvchining/ kitobxonning badiiy talabini qondirish. Shuning uchun tarjima uchun asar tanlanganda mana shu jihatlarni inobatga olish kerak bo'ladi. Badiiy matnni so'zma-so'z tarjima qilish orqali kitobxon qalbini egallab bo'lmaydi, buning uchun esa tarjimon birinchi o'rinda asar muallifi yashagan davrni, muallifga ta'sir qilgan omillarni, muallifning uslubini yaxshi bilish bilan bir qatorda, tarjimaning nozik jihatlarni tushunishi, tahlil qila bilishi va tarjimada aks ettira olishi zarur. Maqolada badiiy adabiyotni tarjima qilishda tarjimonga qo'yilgan talablar va tarjimonning pozitsiyasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Badiiy tarjima, she'riy tarjima, so'z topqirligi, nemis zamonaviy she'riyati, tarjimon mas'uliyati, o'quvchi va shoir (muallif) munosabati, tarjima tahlili.

Аннотация: Художественный перевод накладывает на переводчика двойную ответственность. С одной стороны, переводя с позиции автора, а с другой – удовлетворяя художественный запрос читателя. Поэтому эти аспекты следует учитывать при выборе произведения для перевода. Невозможно завоевать сердце читателя, переведя художественный текст буквально, и для этого переводчик должен прежде всего знать период, в котором жил автор произведения, факторы, оказавшие влияние на автора, авторский стиль, а также уметь понимать, анализировать и отражать тонкости перевода в необходимом переводе. В статье рассматриваются требования к переводчику и позиция переводчика при переводе художественной литературы.

Ключевые слова: Художественный перевод, поэтический перевод, изобретательность слова, современная немецкая поэзия, ответственность переводчика, взаимоотношения читателя и поэта (автора), анализ перевода.

Abstract: Literary translation imposes a double responsibility on the translator. On the one hand, translating from the author's position, and on the other, satisfying the reader's artistic request. Therefore, these aspects should be taken into account when choosing a work for translation. It is impossible to win the reader's heart by translating a literary text literally, and for this, the translator must first of all know the period in which the author of the work lived, the factors that influenced the author, the author's style, and also be able to understand, analyze and reflect the subtleties of translation in the required translation. The article examines the requirements for the translator and the position of the translator when translating fiction.

Key words: Literary translation, poetic translation, inventiveness of words, contemporary German poetry, translator's responsibility, relationship between reader and poet (author), translation analysis.

Badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimon, albatta, ijodiy jihatdan u yoki bu yo'nalishda qog'oz qoralab turadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pincha tarjima asarlarni o'qiganimizda yozuvchining fikrlariga tarjimonning munosabatlari ham e'tibori-mizni tortadi. Boshqacha ifodalaydigan bo'lsak, tarjimon ba'zan suujet yoki personaj borasida muallifga maslahat bergandek, o'z qarashlarini tarjimada singdirib ketadi. Aslida qanday bo'lishi kerak? Tarjimonning qanchalik haq-huquqi bor? Umuman olganda, tarjimon nimalarga e'tibor qaratishi kerak va tarjima paytida muallifning fikriga munosabat bildirishi mumkinmi? Professor Abdug'afur Rasulov M.Baxtinning «Muloqot» (dialog) atamasini "Badiiy kommunikasiya" tushunchasi bilan



“almashtirgan holda” va bu kommunikasiya jarayonida ichki o‘tish –o‘tkazishning qabul qilingan (-dan... -gacha) chegarasi mavjudligini ta'kidladi, hamda tarjimon vositachi ekanligiga urg‘u berdi [3,97-98].

Adib Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda, tarjimon muallif bilan teng darajada turib mas'uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Qolaversa, ba'zi o‘rinlarda muallifning o‘ziga aylanib qolishi, tabiiy. Demak, ruhiyat [1, 121] ham tarjima his etilishi va sezilishi kerak. Shunday ekan, tarjimondan juda katta yukni ko‘tarish talab qilinadi. Bu boradagi fikrlarimizga 2021 yil Gyote Institut tashabbusi bilan o‘tkazilgan Markaziy Osiyoning 150 nafar tarjimoni ishtirokidagi seminarlarning natijasi sifatida chop etilgan “Simurgh“ (Simurg‘) antologiyasi misolida oydinlik kiritmoqchimiz.

Aytish joizki, “Simurg“ deb nomlangan hozirgi zamon nemis she'riyatining Markaziy Osiyo mamlakatlari tillaridagi antologiyasini yaratish g‘oyasining o‘zi tahsinga loyiq. Darhaqiqat, 20-asr oxiri va 21-asr boshlaridagi zamonaviy nemis adabiyotidan tarjima asarlarni yoki matnlarni tahlil qilish, ularni o‘rganish masalasi haqida gap ketsa, biror yangi manba topish mushkul edi. Antologiyaning kirish so‘zida aytilganidek, nemis zabon hudud va Markaziy Osiyo adabiyotlari bir-birlari haqida juda kam ma'lumotga ega. Chunki aksariyat ilmiy tadqiqotlarning ob'ekti sifatida Yohann Volfgang Gyote, Fridrix Shiller, Frans Kafka, Tomas Mann, Xaynrix Byoll va oxirida Gyunter Grass asarlari bilan cheklanib qolinmoqda.

To‘g‘ri, oxirgi yillarda bir qator havaskor va professional tarjimonlar tomonidan bir nechta zamonaviy shoir hamda yozuvchilarning asarlari o‘zbek tiliga o‘girildi. Xususan, Patrik Zyuskindning “Ifor” romani ham o‘zbek tiliga rus tili orqali Gulbahor Saidg‘anieva tomonidan tarjima qilindi. Ammo tarjima qilingan asarlarning aksariyati o‘quvchining diqqatini jalb qilolmadi. Patrik Zyuskindning “Ifor” romani sarlavhasi “Ifor (Bir mahkum qissasi)” deb tarjima qilinganining o‘zi o‘quvchini biroz chalg‘itib qo‘yishi mumkin. Negaki, zakiy kitobxon originalning qanday nomlanishiga ham qiziqib ko‘radi yoki romanni tadqiq qilishga qiziqqan olim, avvalambor, asarni asliyatda ham o‘rganib ko‘radi. Vaholanki, asliyatda ham, rus tilida ham roman sarlavhasida mahkum so‘zi uchramaydi. Nemis tilida roman Das Parfum. Die Geschichte eines Mörders deb ataladi, bu rus tiliga Parfyumer. Istoriya odnogo ubiysi tarzida o‘giriladi. Demak, o‘zbek tilida roman Ifor. Bir qotil qissasi shaklida taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Demoqchi bo‘lganimiz, biror tildan boshqa tilga o‘girilayotgan asarlarga o‘ta mas'uliyat hissi bilan yondashish talab etiladi.

Xuddi yuqoridagi masala kabi “Simurg“ antologiyasida ham bir qator o‘quvchini, aniqrog‘i nemis tilini biladigan kitobxonni tarjima nuqtai nazariga ko‘ra chalg‘itadigan jihatlari talaygina.

Antologiyaning nemis tilidagi Kirish so‘zida deutschsprachiger Raum (nemis), Zentralasien (O‘rta Osiyo), (Lese-)Leben (adabiy hayot) kabi so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobillari o‘rtasida biroz nomutanosiblik holatlari mavjud. Und diese Übersetzungen sind mehr als nur die Übertragung von Texten von der einen in die andere Sprache geworden (Va bu tarjimalar matnlarni bir tildan boshqa tilga o‘girishdan ko‘proq narsaga aylandi) – gapi to‘liq tushirib qoldirilgan. Agar antologiya biror ilmiy ishning tadqiqot ob'ekti sifatida olinsa, mana shu kabi kichik detallar ham muhim o‘rin tutadi. She'rlar mualliflarining ism-familiyalari qay tarzda berilganiga (lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida) ham e'tibor qaratish to‘planning qiymatini oshirishga xizmat qilishi, tabiiy.

Anya Kampmann, Monika Rink, Rike Sheffler, Daniela Zeel va Yan Vagnerlarning ijodiga murojaat qilingani tasodifiy emas. Ushbu ijodkorlar adabiyot va san'atning bir qator yo‘nalishlarida faoliyat yuritishadi, qolaversa, ijodkorlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan tanlovlar g‘oliblari hamda ijodkorlar uyushmalarining a'zolari hisoblanishadi. Adabiy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi, tadqiqotchisi, kuzatuvchisi va tahlilchisi sifatida bugungi kun kitobxonni nimani o‘qishni xohlayotganini allaqachon anglab etgan ijodkorlardir. Tanlovni olqishlamaslikning iloji yo‘q.

Bevosita yuqorida sanab o‘tilgan ijodkorlar qalamiga mansub she'rlar tarjimalarining tahliliga o‘tishdan avval tarjima qilishning muhim bir jihatini alohida eslab o‘tishni joiz, deb bildim. Ma'lumki, tarjimon u yoki bu asarni tarjima qilayotganda barcha mas'uliyatni o‘z zimmasiga ola bilishi kerak, dedik yuqorida. Chunki aynan shu jarayonda tarjimonning zimmasiga asar muallifi singari barcha mas'uliyat yuklanadi. O‘zga yurtning nufuzli ijodkorining asari tarjima orqali o‘rtamiyona darajaga tushib qolmasligi kerak. Demak, badiiy tarjimada ham qulay erkinlik, ham yuksak javobgarlik bor. Tarjimada muallifning biror fikri tushib qolishi, tarjimon o‘zidan biror fikr qo‘shishi va munosabat bildirishi mumkin emas. Aks holda asar muallifiga resepsiya [2, 45] jarayonida munosabat bildirish borasida pozitsiyaga putur etishi mumkin.



Hozirgi zamon nemis she'riyati antologiyasi "Simurg"ni tahlil qilish maqsadida, yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlarning to'plamga kiritilgan she'rlaridan namunalarni atroflicha o'rganib chiqishni ma'qul topdik.



Anya Kampmann (1983 yil 31 oktyabr, Hamburg/Germaniya) ham nasriy ham she'riy asarlar muallifi bo'lib, nafaqat Germaniyada, balki xalqaro adabiy doiralarda ham e'tirof etilayotgan yosh ijodkorlardan biri hisoblanadi. Dunyoning bir qator mamlakatlarida, jumladan, Italiya, Shveysariya, Pokiston, Belarus, AQSh, Angliyada, tashkil etilgan adabiy anjumanlarda o'zining ham she'riy, ham nasriy asarlari bilan ishtirok etib, kitobxonlar va adabiyotshunoslarning e'tiboriga tushgan. Reseptiv tahlil nuqtai nazaridan Anya Kampmann oxirgi yillarda ijod pillapoyasining yuqori zinalariga ko'tarilayotganini namoyon eta oldi. 2017 yil "Wie hoch die Wasser steigen" (Suvlar qanchalik baland ko'tariladi) romani Alfred Dyoblin mukofotining finalchisiga aylandi, 2018 yil shu roman avval Karl Xanzer nashriyotida chop etildi va "Belletristika" yo'nalishi bo'yicha Laypsig kitob ko'rgazmasi mukofotiga tavsiya etildi. Keyin Mara-Kassens mukofotini, Zaksen federal erining Lessing mukofotini, Bergen-Enkxaym shahar yozuvchilar mukofotini qo'lga kiritdi. Bavariya tasviriy san'at akademiyasining haqiqiy a'zosi.

Bir narsani alohida ta'kidlash kerakki, antologiyaga kiritilgan she'rlar turli tarjimonlar tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. Tarjimaga yondashuv ham, qarash ham turlicha.

"Quyon" („kaninchen“) she'ri Gulnoz Nabieva tomonidan tarjima qilingan. Original matnni o'qishdan oldin tarjimini o'qib, tushunishga urindim. Oq she'r shaklidagi ushbu she'rning o'zbek tilidagi tarjimasi originaldan ko'ra ko'proq ma'qul keldi. Anya Kampmanning fikrlari yanada sayqallashtirilib, o'zbek o'quvchisi uchun tushunarli ifodalangan. Qolaversa, tarjimon she'rni qofiyalashtirishni ham uddalagani o'quvchiga sezilib turadi. Tahlil jarayonida muallifning ...die jahre rauschen respektlos vorbei... satri e'tiborimizni tortdi, bu satrni tarjimon ...yillar dolg'alanar beparvo... shaklida ifodalab topqirlik qiladi. Yana bir joydaNonvoyxona Gul do'koniga sal narida turar tobutlar... satriga duch kelinadi. Tarjimadagi tobutlar so'zi asliyatda bestattungsinstitut – ya'ni dafn qilish muassasasi tarzida keladi, tarjimada berilgan so'z esa ma'no va mazmunga aslo ta'sir ko'rsatmaydi.



Shoira va yozuvchi Monika Rink 1969 yil 29 aprelda Germaniya-ning Raynland-Pfals federal erida joylashgan Svaybryuken (Ikki ko'prik) shahrida dunyoga keldi. San'atkorlar oilasida voyaga etgan Monika Rink Boxum va Berlin shaharlarida Dinshunoslik, tarix hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishlari bo'yicha tahsil oldi. Nasriy, nazmiy asarlarini turli nashriyotlar orqali e'lon qildi. Badiiy asarlar tarjimoni sifatida ham faoliyat yuritdi. 2008 yilda Avstriya radiosida Adabiyot radio san'ati eshittirish-lar seriyasini yaratdi. Germaniya yozuvchilar, nashirlar markazi va Germaniyaning Til va she'riyat akademiyasining a'zosi. 2015 yil Myunster shahrida, 2019 yil Gyottingen shahrida, 2020 yil Frankfurt shahrida she'riyat bo'yicha



ma'ruzalar qildi. 2021 yildan beri Berlin Erkin universiteti Nemiszabon she'riyat yo'nalishi bo'yicha professori hisoblanadi.

Monika Rinkning „Die Toten“ she'rini tarjimon Sherzod Komil Xalil o'zbek tiliga "Foniylik" sarlavhasi bilan o'giran. Aslida bemalol "Marhumlar" yoki "O'liklar" deb tarjima qilinsa ham bo'lardi. O'quvchi tarjima qilingan matnni mutolaa qilganda, osongina tushunib olishi kerak. Asliyat hamda tarjima matnlari taqqoslanganda, tarjimon she'r matnining qofiyasiga e'tibor qaratish asnosida, asliyat mazmunini ozgina g'alizlashtirib qo'rganini va oqibatda bir qator so'zlarni tashlab ketganini sezish mumkin.

Asliyat matni:

Da war diese Welt. Die Menschen kamen
sehr spät noch hinzu, sie vermehrten
und töteten sich. In der Zwischenzeit
entwickelten sie Helme, die Zivilisation
und diverse kostspielige Waffensysteme...

Tarjimasi (tarjimon Sherzod Komil Xalil):

Dunyo-ku bor edi. Keldi odamlar,
Qo'shildilar baravj, ko'paydilar bot.
Dubulg'a jarangi, qirg'inu g'amlar,
Sivilizasiya, qurollar hayhot...

Tarjima matnidan ko'rinib turibdiki, qaysidir so'zlar e'tibordan chetda qoldirilgan va bu esa asliyatning qiymatini biroz pasaytirib qo'rgan.

Dunyo-ku bor edi. Keldi odamlar
qo'shildilar yana juda kech, ko'paydilar bot
va qirdilar bir-birlarin. Yaratdilar
bu orada dubulg'ayu sivilizasiya
va bir qancha ko'ngilochar yarog' tizimin hayhot...

(Taklif Abdulaziz Qosimovniki)

She'rning ikkinchi bandi tarjimasiga yondashuv biroz boshqacha bo'lgan. Tarjimon o'z topqirligi, qofiyani maromiga keltirish orqali matn tarjimasining ishonchli chiqishini uddalagan.

Asliyat matni:

Damit machen sie einstweilen weiter.
Ich habe dem nichts hinzuzufügen,
es gibt heut kein Gedicht. Höchstens dies:
„Mehr Mitspracherecht für die Toten.“

Tarjimasi (tarjimon Sherzod Komil Xalil):

Shunday davom etgan bul ma'rakada,
Ortiq nedir qo'shish menga emas, yo'q.

Tiriklar haqida she'r yo'q jabhada:

"O'liklarga bering so'zlashga huquq".

Tarjimonning matnni tarjima qilishdan oldingi katta mas'uliyati matn muallifi, yo'nalishi, uslubi, qolaversa, muallif yashayotgan va faoliyat yuritayotgan muhit haqida ma'lumotga ega bo'lishidir.



Rike Sheffler 1985 yil Berlinda tavallud topgan. Shoir, ijrochi, san'atkor sifatida Berlinda ijod qiladi. She'riyat ijodkor uchun imkoniyatlar maydonidir. Sheffler dastlab Berlinda Psixologiya bo'yicha va keyin esa Laypsig shahridagi Germaniya adabiyot institutida Badiiy ijod yo'nalishida tahsil oldi. Ijodiy faoliyati uchun bir qator mukofotlar va e'tiroflarga, qolaversa, imkoniyatlarga sazovor bo'ldi. O'z ijod namunalarini Tokio, Parij, Kopenxagen, Xamburg, Berlin shaharlarida taqdim qildi, butun dunyo bo'ylab Adabiyot festivallarida ishtirok etdi.

"Simurg" zamonaviy nemis she'riyati antologiyasida shoira Rike Sheffler she'rlarining aksariyati Nodira Nazar tomonidan tarjima qilingan. Birgina "Suvga aylanish" she'rini misol qilib oladigan bo'lsak, she'r sarlavhasi aslyatda "Becoming Water" deb berilgan. Sarlavhadan keyin esa, ikkita epigراف ham bor. Birinchi epigراف fransiyalik san'atkor Yulien Bismut tomonidan aytilgan bo'lib, tarjimasi: "Go'yo yonimdagi stakan suv uchun gapirmoqchi bo'lgandekman". Ikkinchi epigراف muallifi esa amerikalik professor Donna Xaravay xonim hisoblanadi va tarjimasi: "Biz hech qachon odam bo'lmaganmiz". She'r muallifi ushbu epigraflarni sarlavha singari ingliz tilida beradi. Tarjimon ham mana shu epigraflarni o'z holidan qoldirgan. Agar epigraflar ham tarjima qilib berilganda, she'rning mazmuni o'quvchi uchun yanada tushunarli va aniq bo'lardi.

Qolaversa, she'riy tarjimalarda tarjimonda erkinlik bo'lgani bilan katta mas'uliyat ham borligini esdan chiqarmaslik kerak. Ana shunday mas'uliyatga "Suvga aylanish" she'rining tarjimasida biroz putur etgandek. She'rning tarjimasi alohida tahlil talab qilgani bois, oxirgi uchta satrining tahlili bilan cheklanishni ma'qul bildik.

Aslyat matni:

...Weich sein heißt nicht einknicken.

Freiwillig sich hingeben,

stärker als Stein.

Ushbu uch satrning so'zma-so'z tarjimasi:

...yumshoq bo'lish sinish emas.

Istab chetga o'tishdir bu,

Toshdan ko'ra kuchliroqdir.

Ammo mana shu uch satrning tarjimon Nodira Nazar tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi:

Yumshoq bo'lish – bukilish deb atalmas

Engilish deb atalmas,

O'z-o'zingni ixtiyoriy taslim qilish – irodani tutishdir.

Yutish uchun "xo'p" demoq kerak...

Egilish – tosh bo'lib qolishdan kuchli,

Egilish – yutishdir!

Mana shu o'rinda tarjimon tarjimadan ko'ra interpretasiyaga ko'proq ahamiyat berganmikan? degan savol tug'iladi o'quvchida. Agar o'quvchida matnning originalini o'qib, tushunish imkoni bo'lsa, tarjimaning bu shaklda berilishidan ko'ngli to'lmasligi, tabiiy. Takrorlash bo'lsa-da, yana bir marta aytishni joiz bilgan



holda, tarjima bilan mashg'ul inson ikki karra yukni o'z zimmasiga oladi. Tarjimon ikki muallif, ikki xalq adabiyoti va ikki millat uchun mas'uldir.



Hozirgi kunda Berlin shahrida yashayotgan shoira, tarjimon va noshir Daniela Zeel 1974 yil 04 dekabrda Mayn daryosi bo'yidagi Frankfurt shahrida tug'ilgan. Maktabni tugatishi bilan universitetda o'qishni boshladi. Bir necha bor ta'lim sohalarini o'zgartirdi va nihoyat 1996 yil Germanistika hamda Adabiyot-shunoslik yo'nalishi bo'yicha tahsil oldi. 1997 yil kichik bir nash-riyotda amaliyot o'tadi va shundan beri erkin muharrir bo'lib ish yuritadi. Nashriyot Kommunikasiya va media xizmatlari agentligiga aylantirilgandan keyin, Daniela Zeel xonimga muharrirlik doimiy ish o'rni taklif qilindi. Shuning uchun ishlash bilan bir qatorda nashriyot iqtisodchisi yo'nalishi bo'yicha tahsil oldi.

Bir dona apelsin bo'lsa qo'limda
Boshqalar-la bo'lishsam qani.
Ulashsam jahannam choparlariga,
Qaniydi armonlar qolsaydi arib,
Armonu afsonalar, shunda tin olgum
Eski odatlarga ko'z yumib.
Qaniydi shamol bo'lsa hikmatli,
Hayodan bir qatin archib olardim.
Shunda tong otib oqarar yuzi
Oh jirkanch nafs, tusaydi ko'ngil,
Qaerlarda endi apelsin?

Shoira Daniela Zeelning apelsin haqidagi ushbu she'rini tarjima qilgan Go'zal Musaevaning yondashuvi biroz boshqacha, ya'ni she'r asliyatida ishlatilgan birorta so'z e'tibordan chetda qolmagan. So'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilayotganda ham ekvivalentidan, sinonimidan foydalanilgan. E'tiborimizni tortgan ikki so'z misolida aniqlik kiritib o'taylik:

Höllenreiter – jahannam chopari
Lausiger Geiz – jirkanch nafs

So'zlarning go'zal ma'nolarini topa bilish, o'z o'rnida qo'llay olish ham tarjima san'atida alohida o'rin va ahamiyat kasb etadi. Kontekstdan, syujetdan kelib chiqib, muallifning fikrini o'qiy olishda tarjimondan ham topqirlik, ham zukkolik talab etiladi. Sagengebende qo'shma so'zini to'g'ridan-to'g'ri so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, afsonalar to'plami degan ma'noni beradi. Tarjimon esa bu o'rinda armonu afsonalar shaklida berish bilan cheklangan.





Yan Vagner 1971 yil 18 oktyabrda Xamburg shahrida tavallud topgan nemis yozuvchisi, shoiri va tarjimoni. Maktabni tamomlagandan keyin Xamburg universitetida, Trinit kollejida (Dublin) va Berlindagi Xumboldt universitetida Ingliz filologiyasi yoʻnalishi boʻyicha tahsil oldi. Ingliz-irland shoirlarining yangi avlodi haqida magistrlik ishini yozdi. 2001 yilda dastlabki sheʼriy toʻplami nashrdan chiqqandan keyin, Yan Vagner erkin yozuvchi, noshir va ingliz tilidan tarjimon sifatida faoliyat yuritdi. Uning sheʼrlari bir qator antologiyalardan, adabiy jurnallardan joy oldi. Tanqidchi sifatida Frankfurter Rundschau kabi bir nechta gazetalarda taqrizlar eʼlon qildi. 2009 yildan beri Bavariya badiiy sanʼat akademiyasining, 2010 yildan buyon Mayns shahridagi fan va adabiyot akademiyasining, shuningdek Xamburgdagi Sanʼat erkin akademiyasining, Darmshtadtdagi Germaniya til va sheʼriyat akademiyasining aʼzosi hisoblanadi. "Yomgʻir idishlaridagi oʻzgarishlar" sheʼriy toʻplami uchun Laypsig kitob koʻrgazmasi mukofotiga sazovor boʻlgan. Hozirgi kunda Berlin shahrining Noykyolln tumanida istiqomat qiladi.

Yan Vagnerning "Ip" (Rishta) deb nomlangan sheʼrining ikki bandini tahlil qilib koʻramiz. Sheʼrni Nilufar Rasulova tarjima qilgan.

Birinchi bandning original varianti:

Immer öfter beugen sie sich vor
und raten mir flüsternd zu zwiebelsud, frischen
kuhfladen, hundemilch und birkensaft,
zerstoßenen fliegen. doch die nackte kuppe
steigt wie ein fels, wenn sich das meer zurückzieht.

Birinchi bandning Nilufar Rasulova tarjimasi:

tez-tez oldinga intilib egilar,
yangi piyoz, sigir tezagi, it suti
qayin sharbati va ezilgan chivinlar
ular haqida soʻzlab berar.
yalang tepalikdagi toshlar koʻtarilganda,
dengiz ortga chekinar dam-badam.

Birinchi bandning soʻzma-soʻz tarjimasi (A.Qosimov):

ular har doim oldinga egiladilar
va menga piyoz bulyonin pichirlab berar maslahat,
yangi sigir tezagi, it suti va qayin sharbati,
ezilgan chivinlar. lekin yalangʻoch tepa
dengiz chekinganda tosh kabi koʻtariladi.

Sheʼrda tepalik tosh kabi koʻtarilganda dengizning ortga chekinishi haqida emas, aksincha, dengiz chekingandagina tepalik tosh kabi koʻtarilishi aytilmoqda.

Ikkinchi bandning original varianti:

mit würde kahl zu werden, zu leuchten,
stolz wie ein straubenei in der kunstkammer!
nicht wie die alten am strand,
mit jenen trostlosen spiralen
aus letzen haaren um die platte-

Ikkinchi bandning Nilufar Rasulova tarjimasi:

Qadrli bebaho patlar
Tuyaqush tuxumlari misoli sanʼat asari
Turar tabassum-la magʻrur
Goʻyoki kimsasiz bugʻu chiziqlari
Hech oʻxshamas eski bir sohilga.
Plastinka atrofida soʻnggi soch tolasi –

Ikkinchi bandning soʻzma-soʻz tarjimasi (A.Qosimov):

hurmat bilan kal boʻlish, porlash,
kunstkammer dagi tuyaqush tuxumi kabi faxrlanaman!
plyajdagi eskilarga oʻxshamaydi



o'sha kimsasiz spirallar bilan
plastinka atrofidagi oxirgi sochlardan –
Nilufar Rasulova tarjimasidagi
Qadrli bebaho patlar...
....turar tabassum-la mag'rur
go'yoki kimsasiz bug'u chiziqlari

misralari originalda umuman uchramaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, tarjimon biroz lirik chekinish qilishni ma'qul topgan. Bu esa, tarjimoni umuman g'aliz shaklga va mazmunga keltirib qo'yan. Tarjimaga bunday yondashuv orqali Nilufar Rasulova shoir, yozuvchi, tarjimon Yan Vagnerni tushunarsiz muallifga aylantirib qo'yan.

Toshkentdagi Gyote Institutining tarjimonlarni qo'llab-quvvatlashi, yuqorida aytib o'tganimizdek, tahsinga loyiq. Ammo bu kabi she'riy antologiya yaratish loyihasi uchun har kuni moliya berilmaydi. Va shunday ekan, shoirlarni tanlashda ham, tarjimonlarni tanlashda ham juda mas'uliyatli bo'lish kerak. Ayniqsa so'zning qiymati, qadri alohida inobatga olinishi kerak. Zero, poydevorning qiyshiq bo'lishi, oxir-oqibat binoning qulashiga olib keladi. Ehtimol biz bugun kelgusida qaysidir ilmiy ishning ob'ektiga aylanishi mumkin bo'lgan matn bilan ishlayotgandirmiz. Shunday ekan, yangi davr nemis she'riyati va uning tarjimasini hamda tahliliga biroz jiddiroq qaraylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karim, Bahodir. Ruhiyat alifbosi. /– Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 364 b.
2. Quronov, Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn] : darslik / D.Quronov. – Toshkent : "Noshir" nashriyoti, 2019. – 336 b.
3. Rasulov, Abdug'afur. Badiiylilik – bezavol yangilik: Ilmiy – adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – T.: "Sharq", 2007. – 336 b.
4. Baymanov Habibullo Abdullayevich, Avlakulov Avazbek Ismoilovich, Sattorova Sattorova Tojimatovna, Rozikova Feruza Komiljonovna, Muminova Maftuna Alijonovna// United Kingdom Annals of the Romanian Society for Cell Biology.// Compliment-concept and discourse features of qualitative lexemes of human nature (on the example of German and Uzbek languages)///"Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 2598 – 2605 Received 05 March 2021; Accepted 01 April 2021"
5. Muminova Maftuna Alijonovna Yusupalieva Shakhnoza Khakimjanovna, Sattorova Saodat Tojimatovna \\ "India Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal\\ Syntactic functions and patterns of combinability of adverbs ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 7, ISSUE 1, Jan. -2021 P. 176-178
6. Yusupova Sanobat Tursunbayevna, Nishonova Dilfuza Xomidovna, Sattorova Saodat Tojimatovna \\ Uzbekistan International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education (IJDIE) \\ The importance of communicative listening comprehension in language teaching \\ Vol. 3 No. 2 (2021): IJDIE p.18-20
7. Sattorova Saodat Tojimatovna \\ Aktualnoy filologii nauchniy jurnal \\ Chet til ta'lim jarayonida individuallashtirish xususiyatlari \\ 2021 yil № 1 S.50-59 elektronniy jurnal <https://ruslit.jspi.uz/index.php/ruslit/article/view/737>
8. Sattorova Saodat Tojimatovna // Miasto Przyszłości Kielce 2022 // [Роль Индивидуального Подхода В Обучении Английского Языка](#) // 2022 Vol 29 P. 110-111